


## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019-yil yanvar-dekabr)


2019-yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 710,3 mln. AQSh dollariga etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 95,7 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, eksport hajmi 438,2 mln. AQSh dollarga va import hajmi 272,1 mln. AQSh dollariga yetdi. Tashqi savdo saldosini 166,1 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi**  
(mln. AQSh dollari)




Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, respublika tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,6 % ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 93,1 % ni tashkil qilgan, boshqa davlatlarning ulushi esa 61,4 % bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 97,4 % ni tashkil qilgan. Shuningdek, eksport hajmida MDH davlatlari 48,9 % ni, boshqa davlatlar 51,1 % ni va import hajmida MDH davlatlari 21,9 % ni, boshqa davlatlar 78,1 % ni tashkil qildi.

## 2019-yil yanvar-dekabr oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019-yilning dekabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, noyabr oyiga nisbatan 3,1 mln. AQSh dollarga ko'p eksport qilindi va 38,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 25,0 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa noyabr oyiga nisbatan 7,3 mln. AQSh dollariga ko'proqdir.

## 2019-yil yanvar-dekabrda tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi (mln. AQSh dollari)



2019-yil yanvar-dekabr oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi quyidagicha ko'rinish olgan:

**Respublika tashqi savdo aylanmasida  
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'sish sur'ati, %
Xitoy	181,2	110,6	70,6	25,5	109,2
Rossiya	179,6	143,5	36,1	25,3	94,0
Turkiya	80,5	60,4	20,1	11,3	70,1
Qozog'iston	75,0	60,6	14,4	10,6	107,7
Koreya Respublikasi	64,4	18,2	46,2	9,1	133,8
Latviya	30,2	21,1	9,1	4,2	74,4
Vietnam	15,0	0,1	14,9	2,1	179,4
Buyuk Britaniya	8,2	0,0	8,2	1,2	3,4 b.
Eron	6,0	0,2	5,8	0,8	150,1
Ukraina	5,4	2,2	3,2	0,8	24,6
Qirg'iziston	4,9	3,1	1,7	0,7	101,2
Germaniya	4,6	0,9	3,7	0,6	37,1
BAA	4,1	1,5	2,6	0,6	93,0

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019-yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,6 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 93,1 % ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 60,3 % ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 61,4 % ga etdi.

## Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi

(mln. AQSh dollari)


Davlat nomi	2017-yil yanvar-dekabr	2018-yil yanvar-dekabr	2019-yil yanvar-dekabr
<b>Xitoy</b>	<b>180,8</b>	<b>166,0</b>	<b>181,2</b>
eksport	119,7	106,5	110,6
Import	61,1	59,5	70,6
saldo	58,6	47,0	40,0
<b>Rossiya</b>	<b>149,4</b>	<b>191,1</b>	<b>179,6</b>
eksport	108,4	136,2	143,5
import	41,0	54,9	36,1
saldo	67,4	81,3	107,4
<b>Turkiya</b>	<b>127,4</b>	<b>114,8</b>	<b>80,5</b>
eksport	118,4	97,8	60,4
import	9,0	17,0	20,1
saldo	109,4	80,8	40,3
<b>Qozog'iston</b>	<b>46,1</b>	<b>69,6</b>	<b>75,0</b>
eksport	43,4	56,4	60,6
import	2,7	13,2	14,4
saldo	40,7	43,2	46,2
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>28,9</b>	<b>48,2</b>	<b>64,4</b>
eksport	1,3	8,9	18,2
import	27,6	39,3	46,2
saldo	-26,3	-30,4	-28,0
<b>Latviya</b>	<b>42,8</b>	<b>40,5</b>	<b>30,2</b>
eksport	41,8	25,1	21,1
import	1,0	15,4	9,1
saldo	40,8	9,7	12,0
<b>Vietnam</b>	<b>0,7</b>	<b>8,4</b>	<b>15,0</b>
eksport	0,6	1,0	0,1

Davlat nomi	2017-yil yanvar-dekabr	2018-yil yanvar-dekabr	2019-yil yanvar-dekabr
import	0,1	7,4	14,9
saldo	0,5	-6,4	-14,8
<b>Buyuk Britaniya</b>	<b>0,9</b>	<b>2,4</b>	<b>8,2</b>
eksport	-	-	-
import	0,9	2,4	8,2
saldo	-0,9	-2,4	-8,2
<b>Eron</b>	<b>3,4</b>	<b>4,0</b>	<b>6,0</b>
eksport	2,6	0,5	0,2
import	0,8	3,5	5,8
saldo	1,8	-3,0	-5,6
<b>Ukraina</b>	<b>9,4</b>	<b>21,8</b>	<b>5,4</b>
eksport	3,4	3,5	2,2
import	6,0	18,3	3,2
saldo	-2,6	-14,8	-1,0
<b>Qirg'iziston</b>	<b>5,8</b>	<b>4,8</b>	<b>4,9</b>
eksport	5,8	4,7	3,1
import	-	0,1	1,7
saldo	5,8	4,6	1,4
<b>Germaniya</b>	<b>3,2</b>	<b>12,4</b>	<b>4,6</b>
eksport	0,4	0,5	0,9
import	2,8	11,9	3,7
saldo	-2,4	-11,4	-2,8
<b>BAA</b>	<b>5,5</b>	<b>4,5</b>	<b>4,1</b>
eksport	0,6	1,5	1,5
import	4,9	3,0	2,6
saldo	-4,3	-1,5	-1,1


## EKSPORT

2019-yil yanvar-dekabr oylarida eksport hajmi 438,2 mln. AQSh dollariga teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,4 % ulushga ega, bular asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (77,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari (9,3 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSh dollari)



### Tovar va xizmatlar eksporti ulushi, (%)




### Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Eksport</b>	438,2	95,7	100	214,4	105,3	100	223,8	88,0	100
<b>Paxta tolasi</b>	6,4	-	1,5	-	-	-	6,4	-	2,9
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	40,7	132,2	9,3	10,8	194,9	5,0	29,8	118,4	13,3
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	337,3	84,1	77,0	191,8	100,0	89,4	145,5	69,5	65,0
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	2,8	30,6	0,6	1,0	48,5	0,5	1,8	25,4	0,8
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	4,3	34,8 b.	1,0	0,6	5,3 b.	0,3	3,7	298,2 b.	1,6
<b>Xizmatlar</b>	2,6	99,6	0,6	1,8	95,6	0,8	0,8	109,3	0,4
<b>Boshqalar</b>	44,1	3,2 b.	10,0	8,5	3,7 b.	4,0	35,7	3,1 b.	16,0

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-dekabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'ati may oyida kuzatilgan.

### Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari (o'tgan oyga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019-yilning dekabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar noyabr oyiga nisbatan 6,9 % ga kamaygan.

Xizmatlar eksporti hajmi 2,6 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,6 % ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,6 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (36,4 %), safarlar (32,5 %) va transport xizmatlari (29,9 %) hissasiga to'g'ri keladi.


### Xizmatlar eksporti tarkibi, (%)





Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2019-yilning dekabr oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, noyabr oyiga nisbatan 0,7 mln. AQSh dollariga ko'p eksport qilindi va 36,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 2,6 mln. AQSh dollariga etgan.

### 2019-yil yanvar-dekabrda tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi (oylar kesimida, mln. AQSh dollari)





■ Tovarlar ■ Xizmatlar

### Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (yanvar-dekabr)

2018-yil

2019-yil



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Turkiya hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 71,8 % ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Turkiyaga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlardan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

### Qoraqalpog'iston Respublikasining asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 y. yanvar- dekabr	2019 y. yanvar- dekabr	2018 y. yanvar- dekabr	2019 y. yanvar- dekabr	2018 y. yanvar- dekabr	2019 y. yanvar- dekabr
Rossiya	136,2	143,5	29,7	32,7	1	1
Xitoy	106,5	110,6	23,3	25,3	2	2
Qozog'iston	56,4	60,6	12,3	13,8	4	3
Turkiya	97,8	60,4	21,4	13,8	3	4
Latviya	25,1	21,1	5,5	4,8	5	5
Koreya Respublikasi	8,9	18,2	1,9	4,1	6	6
Iroq	4,2	3,4	0,9	0,8	8	7
Qirg'iziston	4,7	3,1	1,0	0,7	7	8
Tojikiston	2,2	3,1	0,5	0,7	10	9
Ukraina	3,5	2,2	0,8	0,5	9	10
BAA	1,5	1,5	0,3	0,3	11	11

### Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida jami 26 307,5 tonna meva-sabzavot mahsulotlari 10 751,8 ming AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 187,5 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 17 060,4 tonna sabzavotlar 5 214,2 ming AQSh dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 5 849,8 tonna meva va rezavorlar 3 616,7 ming AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4 002,2 tonnaga ko'paygan.

### Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi




Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida uzum va qovun-tarvuz eksport hajmi 1 658,6 ming AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 barobarga o'sgan).

## Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi


Davlat nomi	2018-yil yanvar-dekabr			2019-yil yanvar-dekabr		
	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, %	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, %
Qozog'iston	21 030,0	4 093,0	71,4	20 024,3	7 734,3	71,9
Rossiya	1 837,5	1 165,0	20,3	4 419,6	1 631,1	15,2
Qirg'iziston	-	-	-	335,5	394,7	3,7
Xitoy	-	-	-	306,0	314,6	2,9
Bolgariya	-	-	-	66,7	310,6	2,9
Ukraina	-	-	-	21,5	101,1	0,9
Turkiya	72,0	46,1	0,8	502,6	66,0	0,6
Fransiya	-	-	-	17,5	48,6	0,5
San-Marino				17,9	41,0	0,4
Ruminiya	42,0	5,3	0,1	252,0	36,3	0,3
Turkmaniston	10,0	7,3	0,1	285,9	34,6	0,3

### Meva va sabzavot mahsulotlarining tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

2018-yil  
yanvar-dekabr




2019-yil  
yanvar-dekabr




## IMPORT

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 272,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,3 % ga kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (55,5 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (11,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari (5,8 %) va xizmatlar (3,8 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

### Tovar va xizmatlar importi tarkibi (ming AQSh dollari)



### Tovar va xizmatlar importi ulushi, (%)




### Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Import</b>	272,1	95,7	100	59,7	65,8	100	212,4	109,7	100
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	15,9	137,6	5,8	15,4	139,0	25,8	0,4	101,4	0,2
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	32,4	79,8	11,9	2,8	59,0	4,6	29,6	82,5	13,9
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	9,9	140,4	3,7	2,8	2,0 b.	4,7	7,1	125,2	3,4
<b>Qora va rangli metallar</b>	2,6	44,3	0,9	0,5	16,7	0,8	2,2	69,9	1,0
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	150,9	104,5	55,5	13,8	57,6	23,1	137,1	113,8	64,5
<b>Xizmatlar</b>	10,4	71,8	3,8	1,6	32,3	2,7	8,8	92,4	4,1
<b>Boshqalar</b>	50,0	83,0	18,4	22,8	54,7	38,3	27,2	147,1	12,9

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-dekabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari dekabr oyida kuzatilgan.

### Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan oyga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019-yilning dekabr oyida import qilingan tovar va xizmatlar noyabr oyiga nisbatan 32,9 % ga ko'paygan.

### Qoraqalpog'iston Respublikasiga asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 y. yanvar-dekabr	2019 y. yanvar-dekabr	2018 y. yanvar-dekabr	2019 y. yanvar-dekabr	2018 y. yanvar-dekabr	2019 y. yanvar-dekabr
Xitoy	59,5	70,6	20,9	25,9	1	1
Koreya Respublikasi	39,3	46,2	13,8	17,0	3	2
Rossiya	54,9	36,1	19,3	13,3	2	3
Turkiya	17,0	20,1	6,0	7,4	4	4
Vietnam	7,4	14,9	2,6	5,5	8	5
Qozog'iston	13,2	14,4	4,7	5,3	6	6

Latviya	15,4	9,1	5,4	3,3	5	7
Buyuk Britaniya	2,4	8,2	0,8	3,0	10	8
Eron	3,5	5,8	1,2	2,1	9	9
Italiya	1,7	3,7	0,6	1,4	11	10
Germaniya	11,9	3,7	4,2	1,4	7	11
Turkmaniston	1,6	3,6	0,6	1,3	12	12

### Xizmatlar importi tarkibi, (%)




Xizmatlar importi hajmi 10,4 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 3,8 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 71,8 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (80,9 %) hamda texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari (10,1 %)dan iborat bo'ldi.



## 2019-yil yanvar-dekabrida tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi


(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)




Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019-yilning o'tgan davri mobaynida respublikaga import qilinayotgan tovar va xizmatlar dekabr oyida, noyabr oyiga nisbatan 7,3 mln. AQSh dollarga ko'p import qilingan bo'lib, shundan tovarlar 7,3 mln. AQSh dollarga ko'p import qilingan.

## Respublika importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (yanvar-dekabr)

2018-yil



2019-yil



2019-yilning yanvar-dekabr oylarida respublikaga 45 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Vietnam va Qozog'iston hamkor davlatlaridan jami import hajmi 202,4 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 74,4 % ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar, kimyo mahsulotlari va buyumlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganligini quyidagi sxemalardan ko'rish mumkin.

### Mashina va usbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	XITOIY	VIETNAM	TURKIYA	ROSSIYA	KOREYA RESPUBLIKASI
mln. AQSH doll.	65,3	14,8	13,3	9,2	7,3
O'tgan yilga nisbatan, %	124,9	2,0 b.	2,4 b.	159,4	132,7
Ulushi, %	43,3	9,8	8,8	6,1	4,8

### Kimyo mahsulotlari va buyumlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	KOREYA RESPUBLIKASI	XITOIY	QATAR	ROSSIYA	LATVIYA
mln. AQSH doll.	16,5	2,1	1,9	1,8	1,6
O'tgan yilga nisbatan, %	73,4	-	87,0	65,6	3,2 b.
Ulushi, %	51,0	6,4	6,0	5,5	5,1

**Oziq-ovqat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar**

DAVLAT NOMI	QOZOG'ISTON	ROSSIYA	UKRAINA	TURKMANISTON
mIn. AQSH doll.	10,3	4,1	0,5	0,4
O'tgan yilga nisbatan, %	136,4	4,1 b.	27,8	-
Ulushi, %	65,1	25,6	3,1	2,8

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi  
Tel.:71-230-82-06**